

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15734648>

Tijorat banklarining investitsiya strategiyasi moliyaviy resurslarini optimal joylashtirish orqali maksimal daromad olishga qaratilgan kompleks faoliyat yo'nalishidir. Bu strategiya bank resurslarining tuzilmasi, likvidligi, riskka tolerantlik va umumiy iqtisodiy vaziyatni inobatga olgan holda shakllantiriladi. Tijorat banklari investitsiya strategiyasi orqali nafaqat mavjud kapitalini samarali boshqaradi, balki iqtisodiyotdagi investitsion muhitga ham faol ta'sir o'tkazadi. Strategik yondashuv bankka resurslar taqchilligi sharoitida ustuvor yo'nalishlarni belgilash, uzoq va qisqa muddatli moliyaviy maqsadlarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shu boisdan, investitsiya strategiyasi bank risklarini boshqarish, barqaror foyda olish va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish vositasi sifatida alohida o'rin tutadi.

Tijorat banklarining investitsiya strategiyasi odatda bir nechta asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: davlat va korporativ obligatsiyalarga investitsiya kiritish, qimmatli qog'ozlar bozori orqali operatsiyalarni amalga oshirish, to'g'ridan-to'g'ri real sektor loyihalariga resurslar ajratish, shuningdek, vositachilik xizmatlarini ko'rsatish. Qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish qisqa muddatli va likvid vositalar hisoblanib, daromadlilik va xavfsizlikni bir vaqtning o'zida ta'minlashga xizmat qiladi. Real sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar esa iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bilan birga, bank uchun uzoq muddatli foyda manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, strategik portfel diversifikatsiyasi bank kapitalining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining investitsiya strategiyasini shakllantirishda ichki va tashqi omillar majmuasi muhim rol o'ynaydi. Ichki omillarga bankning kapital bazasi, riskga bo'lgan tolerantlik darajasi, likvidlik holati va boshqaruv sifati kiradi. Tashqi omillar esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, pul-kredit siyosati, inflyatsiya sur'atlari, moliya bozorining holati va tartibga soluvchi organlar talablaridan iborat. Shu bois, banklar investitsiya qarorlarini qabul qilishda muntazam ravishda tahlil va prognoz modellari asosida strategik baholashlar olib boradi. Bank faoliyatini boshqarish portfelida uning rahbariyati quyidagi investitsiya strategiyalarini doimiy ravishda maqbullashtiradi:

1) o'sish strategiyalari kurs bo'yicha qiymati o'sib boruvchi kompaniya aksiyalaridan shakllanadi. Strategiyalarni mazkur turining maqsadi – nisbatan yuqori dividendlar olish bilan birga, qimmatli qog'ozlar portfeli kapital qiymatining o'sishiga erishishdir. Biroq dividend to'lovlari kichik miqdorda amalga oshiriladi;

2) agressiv o'sish strategiyalari bank jamg'armasining maksimal ravishda qo'shimcha o'sishiga mo'ljallangan. Ularning tarkibiga yosh, tez o'sayotgan kompaniyalar aksiyadorlik strategiyalari kiradi. Shu kompaniyalar kabi bank portfelidagi investitsiyalar ham yetarli darajada riskga egadir, lekin u bir vaqtning o'zida eng yuqori daromadni keltirishi bilan ajralib turadi;

3) konservativ o'sish strategiyalari eng kam riskli hisoblanadi. Ularga asosan kurs qiymati o'sish sur'atlari yuqori bo'lmasada, barqarorligi bilan ta'riflanadigan yirik, yaxshi tanilgan kompaniyalar aksiyadorlik strategiyalaridan iborat. Bunda bank portfeli tarkibi uzoq

vaqt davomida barqaror bo'lib qoladi. Konservativ o'sish investitsiya strategiyalari jamg'armani saqlab qolishga mo'ljallangan;

4) o'rtacha o'sish strategiyalari agressiv va konservativ o'sishning moliyaviy instrumentlari, investitsiya xususiyatlarining uyg'unlashuvidan iboratdir. Strategiyaning mazkur turini amalga oshirishda uzoq muddatga sotib olinadigan ishonchli qimmatli qog'ozlar bilan birga tarkibi muntazam yangilanadigan riskli fond dastaklari qo'llanadi. Bunda jamg'armaning o'rtacha o'sishi va qo'yilmalarni mo'tadil risk darajasi kafolatlanadi. Ishonchlilik konservativ o'sishning qimmatli qog'ozlari bilan, daromadlilik esa - agressiv o'sishning qimmatli qog'ozlari bilan ta'minlanadi. O'rtacha o'sish strategiyalari qimmatli qog'ozlar portfelining eng keng tarqalgan modeli hisoblanib, yuqori riskka intilmagan banklarda qo'llanadi;

5) daromad strategiyalari foizlar va dividend to'lovlari hisobiga yuqori daromad olish uchun mo'ljallangan. Daromadlar asosan kurs qiymati o'sishi mo'tadil va dividendlari yuqori bo'lgan aksiyalardan, investitsiya xususiyati joriy to'lovlari yuqoriligidan iborat obligatsiyalar hamda boshqa qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlardan shakllanadi. Strategiyalar mazkur turining xususiyati shundaki, ularning maqsadi – konservativ investorlar uchun maqbul bo'lgan riskning minimal darajasiga teng bo'lgan daromadning minimal darajasini olishdir. Shuning uchun mazkur strategiyaning ob'ektlari barqaror to'lanadigan foiz va kurs qiymatining yuqori nisbatiga ega fond bozorining yuksak ishonchli dastaklardir;

6) o'sish va daromad strategiyalari banklarning fond bozoridagi kurs qiymatining pasayishidan hamad, dividend va foiz to'lovlari pastligidan ehtimolli yo'qotishlarini oldini olish maqsadida shakllantiriladi.

Mazkur strategiya tarkibiga kiradigan moliyaviy aktivlarning bir qismi bank uchun jamg'arma qiymatini o'stiradi, boshqasi esa – daromad keltiradi. Bunda bitta qismdan ko'rilgan zarar, ikkinchidan olingan daromad bilan qoplanishi mumkin. Shunday qilib, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini iqtisodiy mohiyati va ahamiyati shundaki, turli sohalarda faoliyat yurituvchi mijozlarni tijorat banklarga jalb qilish yo'li bilan qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish, foyda olish maqsadida xo'jalik yurituvchi su'ektlarni bo'sh moliyaviy resurslarini investitsiyalarga samarali joylashtirish va investitsiya faoliyati natijasida tadbirkorlik faoliyati ob'ektlarini mulkiy va intellektual boyliklarini daromad shakli va boshqa foyda samaradorligiga yo'naltirishdan iboratdir.

Tijorat banklarining investitsiya strategiyasida risklarni aniqlash, baholash va ularni minimallashtirish asosiy ustuvorliklardan biridir. Investitsiya faoliyati bilan bog'liq asosiy risk turlari sirasiga foiz, kredit, likvidlik va bozor riski hisoblanadi. Ushbu risklar uchun banklar har bir investitsion yo'nalish bo'yicha maxsus limitlar belgilaydi, sug'urtalash, hedj qilish (hedging), portfel diversifikatsiyasi, shuningdek, stress-test va ssenariy tahlillari orqali ularni boshqaradi. Risklarni monitoring qilish tizimi strategiyaning samaradorligini ta'minlashda va potentsial yo'qotishlarning oldini olishda asosiy vosita hisoblanadi. Zero, investitsion xavfsizliksiz daromadlilikka erishish amalda mumkin emas.

Raqamli texnologiyalar va moliyaviy innovatsiyalar taraqqiyoti banklarning investitsiya strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga olib kelmoqda. Bugungi kunda ko'plab tijorat banklari sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari, "big data" va tahliliy platformalardan foydalanib, investitsiyaviy qarorlarni tez va ishonchli qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari, yashil investitsiyalar (green investments), ESG tamoyillariga asoslangan sarmoyalar,

fintex kompaniyalari bilan hamkorlik kabi yangi strategik yoʻnalishlar shakllanmoqda. Ushbu yondashuvlar banklar uchun nafaqat moliyaviy foyda, balki ijtimoiy masʼuliyatni oshirish va barqaror rivojlanishga xizmat qilish imkonini beradi. Kelgusida investitsiya strategiyalari yanada murakkab, moslashuvchan va texnologik jihatdan ilgʻor shaklga ega boʻlishi kutilmoqda.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Игони́на Л. Л. Инвестиции. – М.: Магистр, 2014. – 752 с.
2. Кузнецова, О.С. Инвестиционная деятельность российских банков и проблемы ее осуществления // Вестник Гуманитарного университета. – 2018. – № 1. – С. 22-25. – [Электронный ресурс] – Режим доступа: <https://e.lanbook.com/journal/issue/307407>
3. Якутина Э.В. Инвестиции в банковской деятельности // Economics. – 2017. – № 5 (26). – С. 59-62.
4. Райзберг, Б.А. Современный экономический словарь / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева; 6-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 512 с.